

CHO'LPON HIKOYALARIDA AYOLLAR OBRAZI

Ganiyeva Barchinoy Komiljon qizi

FarDU Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada Cho'lpon hikoyalarida ayollar obrazi tasviri va ana shu davrda ayollarga bo'lgan munosabat orqali jamiyatdagi illatlarni ochib berish kabi masalalar tahlil qilingan.

Аннотация: В статье анализируются такие вопросы, как образ женщины в рассказах Чолпана и раскрытие пороков в обществе через обращение с женщинами в этот период.

Annotation: The article analyzes issues such as the image of women in Cholpan's stories and the disclosure of vices in society through the treatment of women in this period.

Tayanch so'z va iboralar: „Novvoy qiz” , „Oydin kechalarda” , „Qor qo'ynida lola”, o'zbek ayoli, psixologizm, ona siymosi, jamiyat.

Ключевые слова и фразы: „Булочница” „Лунные ночи”, „Тюльпан в снегу”, узбечка, психологизм, фигура матери, общество.

Key words and phrases: „Baker's girl” „Moonlit nights”, „Tulip in the snow”, Uzbek woman, psychologism, mother figure, society.

Cho'lpon iste'dodiga xos lirik nazokat va nafosat shoir nasriy asarlarining ham o'ziga xosligini belgilab beradi. Ya'niki, u nazmda ijod qiladimi yoki nasrda, yaratgan asarlari o'zining badiiy qiymatiga ega. Cho'lpon qaysi mavzuga murojaat etmasin, badiiy voqelikni poetic til va obrazlar orqali mujassamlashtirishga erishdi. Shu ma'noda uning 20-yillarda yozgan „Oydin kechalarda”, „Qor qo'ynida lola”, „Novvoy qiz” singari hikoyalari o'zbek adabiyotidagi litik nasrning dastlabki mumtoz namunalari. Cho'lpon bu hikoyalarida o'zbek xotin-qizlarining ayanchli taqdirini turli badiiy rejada tadqiq etar ekan, har bir jamiyatning taraqqiyot darajasi shu jamiyatning xotin-qizlarga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi, degan g'oyani ilgari surgan. Umuman, o'zbek xotin-qizlarining mustamlakachilik sharoitidagi taqdiri tasviri Cho'lpon she'riy ijodining ham, kichik epik asarlarining ham va „Kecha va Kunduz” romanining ham asosiy g'oyai yo'nalishini belgilab bergan.

Tahlilga tortayotgan „Novvoy qiz” hikoyasida ham aynan o'zbek ayolining samimiyligi-yu soddaligini aks ettirish bir qatorda, yozuvchi o'sha davrdagi ayollarga bo'lgan munosabat yaxshi emasligini, jamiyat shu darajada jaholat botqog'iga botganini ham mana shu novvoy qiz obrazi orqali yoritib bergan. Cho'lpon bu hikoyasini bejizga „Novvoy qiz” deb nomlamagan. Sababi xalqimizda non ham, hattoki uning ushug'I ham muqaddas. Uning ortida mehnatkash xalqning mashaqqatli

hayot mazmuni yotadi. Faoliyati non bilan bog'liq insonlardan esa yomonlik chiqmaydi. Razillik, aldov qurboniga aylangan qizning aybsizligini, ko'ngli tozaligini isbotlash uchun ham „Novvoy qiz” deb nomlagan bo'lsa ajab emas.

Hikoyadagi novvoy qiz obrazi orqali o'zbek ayollariga xos ibo-hayo andisha kabi sifatlar ham mahorat bilan tasvirlagan.

„Xoin erkakning marhamatsiz ko'zlari bilan aldangan qizning so'nik ko'zlari bir-biriga yo'liqishdi. Erkak mag'rur, zaharli va sovuq bir kulish bilan kuldi. Qiz juda og'ir bir jirkanish bilan yuzlarini burdi.

Yuqorida keltirilgan parchadan ham ko'rinib turibdiki, qizning qalbida qancha alam va iztiroblar bo'lishiga qaramasdan O'lmasboyga bir so'z ham demasdan yuz burdi. Qiz ko'nglidan o'tayotgan hissiy kechinmalarini, u shaxsdan nafratlanayotganini erkakning ko'lari bilan ko'zlari to'qnashgan paytda ham aytishi mumkin edi. Qizning o'rnida boshqasi bo'lganida, balki erkakning sovuq kulishiga, mazxaraomuz qarashlariga munosib javob qaytargan bo'lar edi ehtimol. Novvoy qiz esa inson qiyofasidagi hayvonga gapirishni o'ziga munosib ko'rmadi va mana shu hislati bilan o'zbek ayolining oriyati, matonati qanday ekanligini ko'rsatib bera oldi.

Cho'lpon bu hikoyasida ona obrazini ham bir necha jumla orqali ta'sirchan tarzda keltirib o'tadi.

„O bechora onam! O'lim oldida ham o'z nasibasini menga berdi. Oh!”

Yuqoridagi asar parchasini o'qigan kitobxon ko'z oldida beixtiyor ona gavdalanadi. Har bir insonning onasi qilgan yaxshiliklari-yu mehribonchiliklari xayolidan o'tadi va shuning uchun ham ushbu jumalarni o'qigan kishi haqiqatan ham o'zbek onalari farzandlari uchun hamma narsaga tayyorligi, doimo ular haqida qayg'urishi, hattoki o'limi oldidan ham dilbandining och qolmasligi uchun oz bo'lsa-da nasibasini ilinishi, farzandi yaxshi yashashi uchun o'z jonini fido qilishiga ishonadi.

Shuncha qiyinchilik va ayrilqni boshdan kechirgan qizning psixologik holati ham yaxshi emasligi tabiiy hol. Yozuvchi buni shundaygina ifodalab qo'ymaydi. Cho'lpon asarda shunday badiiy mahoratini qo'llaydiki, hikoyada keltirilgan qahramon holatini tasvirlashda uning harakatlari orqali bo'lib o'tgan voqealar qizning ruhiyatiga qanday ta'sir ko'rsatganini ochib bera olgan.

Masalan,

„-Men novvoy qiz edim... Besh yildan beri non yopib, o'zim sotib qari onamni boqar edim... Bir kuni... Bir kuni... U yog'ini ayta olmadi. Nafasi og'ziga tiqildi, bo'g'ildi, baddar qaltiradi. So'ngra birdan yovvoyi bir dod chiqarib yiqildi. Pastdan ham bir xunuk „dod” chiqdi.”

Cho'lpon „Qor qo'ynida lola” hikoyasida ham aynan ayollar mavzusiga murojaat qiladi. Bu hikoyani o'qigan kitobxon yodiga beixtiyor „Kecha va Kunduz” romani voqealari keladi. Romanda Zebinisoning baxtsiz hayoti tasvirlangan bo'lsa, hikoyada asar qahramoni bo'lgan Sharofatxonning ayanchli qismati aks etgan.

Sharofatda o'zbek xotin-qizlariga xos ibo-hayo, andisha kabi xislatlar mijassamlashgan.

„-O'la qolsun, Tilla, menga kuyov emas, Sharofatxonga sovchi kelibdir! –dedi. Qizlar bir –biriga qarashib oldilar. Sharofatxon qip-qizil qizarib, turg'on yerida qotib qolg'n edi.”

Yozuvchi mana shu bir-ikki jumla orqali Sharofatxon shu darajada sodda, uyatchang, ta'sirchan qiz ekamligini ko'rsatib bergan. E'tibor berib o'qisak, „qip-qizil qizarib” degan so'zlarda juda katta ma'no borligini anglaymiz. Qip-qizil so'zi aslida qizil so'ziga qaraganda kuchliroq bo'yoqqa ega. Cho'lpon esa uning ma'nosini kuchaytirish maqsadida „qizardi” so'zini ham unga yondosh holda qo'llaydi va o'zi o'ylagan maqsadga erishadi. Lekin Sharofatxonning otasi o'z manfaatlari yo'lida qizini qari bir eshonga uzatishga rozi bo'ladi.

„-Bitta qizimiz bo'lsa eshonimizga tutdik, sadag'alari ketsun!, degil – dedi . Qumribush kutilmagan bu gapdan oqardi, ko'kardi, suvratdek qotib, devorga suyalib qoldi...”

Cho'lpon mana shu yerda o'zbek oilalariga xos milliylikni ham keltirib o'tgan. Bilamizki, har bir uyda , albatta, erkak kishining qarori muhim hisoblanadi, uning fikriga qarshi chiqish millatimiz va dinimizga to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun ham Qumribush garchi masala qizining hayoti ustida borayotgan bo'lsa-da, turmush o'rtog'inig rayiga qarshi chiqmaydi.

Cho'lpon hikoyani yakunlar ekan, ko'cha tasviri orqali go'yoki qizning holatini tasvirlagandek bo'ladi.

„Haligi tomosha bo'lg'on ko'chada kishilar arib, qop-qorong'u jimjit bir go'ristonga aylandi.”

Darhaqiqat, qizning yoshligini o'yin – kulgi, tomosha bo'lgan ko'chaga qiyoslasak, uning uvol bo'lgan yoshligi, soddaligi-yu beg'uborligidan foyalanib uni qari bir eshonga uzatishgandan keyingi hayotini go'ristonga aylanganligi tabiiydir.

Cho'lponning yuqoridagi tahlil qilingan hikoyalaridan shunday xulosa kelib chiqadiki, ayollar, xotin-qizlar har bir millatning ko'zgidir. Chunki ayollarga bo'lgan munosabat orqali u millat qanday ekanligini bilish qiyin emas. Hikoyada aynan rus bosqinchiligi davri aks etgan bo'lib, bu bosqin ta'sirida jamiyatning mana shunday jaholat bilan sug'orilganini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulhamid Cho'lpon. Kecha va kunduz. T.: “Ilm-ziyo-zakovat”. 2019.
2. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. T.: “Hayot”. 2002.
3. Dilmurod Quronov. Cho'lpon nasri poetikasi. T.: “Sharq” NMAK. 2004.
4. M.Yo'ldoshev. Cho'lpon so'zining sirlari. T.: “Ma'naviyat”. 2002.
5. Shahnoza Ravshanova. Cho'lpon ijodida psixologizm. “Yoshlik”. 2014. 12-son.